

Bundan buyon "BUYuRTMACHI" deb ataluvchi Amu-Surxon ITXB xuzuridagi nasos stantsiyalari va energetika boshkarmasi nomidan «NIZOM» asosida faoliyat olib boruvchi boshligi A.Abduraimov bir tomondan va bundan buyon "Ish Bajaruvchi" deb ataluvchi "UNIVERSAL GRAND PLYUS" MChJ nomidan «NIZOM» asosida faoliyat olib boruvchi raxbari A.Axmadjonov ikkinchi tomondan ushbu shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar.

1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Mazkur shartnoma bo'yicha "Buyurtmachi" xizmatlarni qabul qilish va to'lash, "Ish Bajaruvchi" esa Buyurtmachining buyurtmasi bo'yicha quyidagi xizmat ko'rsatish majburiyatini oladi:

No	Xizmatlar nomi	O'lechov birligi	Miqdori	Birlik uchun shartnoma narxi	Shartnomaning umumiy qiymati (bitim summasi)
1	Nasos stansiyalardagi 630 kVt 750 ob/min elektrodvigateleni tubdan ta'mirlash ishlari	dona	4	44050000.00	176200000.00
2	Nasos stansiyalardagi 110 kVt 1000 ob/min elektrodvigateleni tubdan ta'mirlash ishlari	dona	3	30600000.00	91800000.00
	jami				268000000.00

1.2. Shartnomaning umumiy summasi **268000000.00** (Ikki yuz oltmis sakkiz million) so'm 00 tiyin (QQS siz) tashkil qiladi.

1.3. Xizmat ko'rsatishni boshlash va tugatish muddati: Boshlanishi: "08" fevral 2022y. Tugashi: "28" fevral 2022y.

2. HISOB-KITOBLAR TARTIBI

2.1. "Buyurtmachi" mazkur shartnomani g'aznachilik organlarida ro'yxatga olingan kundan boshlab 20 kalender kuni ichida qonunchilikka muvofiq shartnoma umumiy summasidan 30% miqdorida oldindan to'lash majburiyatini oladi, qolgan 70% ni ko'rsatilgan xizmatlar to'g'risidagi dalolatnomalar imzolanganidan so'ng 90 kalender kuni ichida qabul qilish dalolatnomasi, hisob-faktura v.b. asosida to'laydi.

2.2. Xizmat ko'rsatish yakunlangandan keyin "Xizmat ko'rsatuvchi", "Buyurtmachiga" bajarilgan ishlarni qabul qilish-topshirish dalolatnomasini taqdim etadi.

2.3. "Buyurtmachi" dalolatnomalar va unga ilova qilingan boshqa hujjatlarni olgandan keyin 5 bank ish kuni ichida imzolangan dalolatnomani yoki xizmatlarni qabul qilishni asosli ravishda rad qilish xatini "Xizmat ko'rsatuvchiga" ga yuboradi.

2.4. Rad qilingan holatda, ko'rsatilgan xizmatlarni qabul qilishni asosli ravishda rad qilinishi yuzasidan kamchiliklarni bartaraf etish ro'yxati va muddati bo'yicha tomonlar o'rtaida dalolatnomalar tuziladi.

3. SHARTNOMANING BAJARILISHI

3.1. Mazkur shartnoma belgilangan tartibda amaldagi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va shartnoma talablari va shartlariga muvofiq ijro etilishi shart.

3.2. Shartnomaning shartlarini bajarishni bir tomonlama rad qilish yoki shartnoma shartlarini bir tomonlama tartibda o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi, O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligidagi o'rnatalgan hollar bundan mustasno.

3.3. Tomonlar o'z zimmalariga olgan barcha majburiyatlarining ijrosini ta'minlagan taqdirda shartnoma bajarilgan hisoblanadi.

3.4. Buyurtmachining roziligi bilan xizmatlar muddatidan avval ko'rsatilinishi mumkin.

3.5. Ko'rsatilgan xizmatlar bevosita Buyurtmachining mas'ul xodimlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar miqdori va ularning sifati ko'rsatiladigan dalolatnomalar bo'yicha qabul qilinadi.

4. TOMONLARNING JAVOBGARLIKHLARI

4.1. Buyurtmachi:

- shartnoma O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiqligi;
- xizmat ko'rsatuvchi bilan shartnoma tuzish yoki xizmat ko'rsatuvchi bilan shartnoma tuzishni rad etish muddatiga rioya etilishi (ajratilgan byudjet mablag'lari kamayishi holatlari bundan mustasno);

4.2. Ko'rsatilgan xizmatlarni tanlab olmaslik, shuningdek xizmat ko'rsatuchi shartnomada belgilangan muddatda (davrda) ularni xizmatlari ko'rsatganda, xizmatlarni qabul qilib olishni asossiz ravishda rad etganlik uchun buyurtmachi xizmat ko'rsatuvchiga qabul qilib olinmagan (o'z muddatida qabul qilib olinmagan) xizmatlar qiymatining 5 foizi miqdorida jarima to'laydi.

Qabul qilib olinmagan (olish asossiz rad etilgan) hollarda, xizmat ko'rsatuvchi jarima undirishdan tashqari, ushbu ishlarni bajarilganligining kafolatlarini taqdim etgan holda, qabul qilib olinmagan (o'z muddatida qabul qilib olinmagan) xizmatlar qiymati to'lanishini talab qilishiha haqlidir.

4.3. To'lov talabnomasi aktseptini asossiz ravishda butunlay yoki qisman rad etganlik, shuningdek hisob-kitobning boshqa shakllarida xizmatlar haqini to'lashdan bosh tortganlik (bank muassasasiga to'lov topshiriqnomasini taqdim etmaganlik, chek bermaganlik, akkreditivni taqdim etmaganlik va hokazo) uchun buyurtmachi xizmat ko'rsatuvchiga o'zi to'lashni rad etgan yoki bosh tortgan summaning 15 foizi miqdorida jarima to'laydi.

Bajarilgan xizmatlar haqini o'z vaqtida to'lamaganlik uchun buyurtmachi xizmat ko'rsatuvchiga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'limgan miqdorida penya to'laydi.

4.4. Ish Bajaruvchi:

- miqdor, sifat, texnik parametrlar, shuningdek taklif etilayotgan xizmatlarni ko'rsatish muddatlari va joyi bo'yicha yetkazib beruvchi buyurtmanomalari shartlarining buyurtmachi buyurtmanomalarida nazarda tutilgan shartlarga muvofiqligi;
- tuzilgan shartnoma shartlarining bajarilmaganligi uchun javob beradi.

4.5. Agar ko'rsatilgan xizmatlar standartlar, sifati, texnik shartlar, qonun hujjatlarida yoki xo'jalik shartnomasida belgilangan boshqa majburiy shartlarga mos kelmasa, buyurtmachi xizmatlarni qabul qilish hamda ularning haqini to'lashni rad etib, xizmat ko'rsatuvchidan sifati lozim darajada bo'limgan xizmatlar qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirib olishga, xizmatlar haqi to'lاب qo'yilgan bo'lسا, to'langan summani belgilangan tartibda qaytarishni talab qilishiha haqlidir. Sifati lozim darajada bo'limgan xizmatlar ko'rsatganligi uchun jarima xizmat ko'rsatuvchidan aktseptsiz tartibda undirib olinadi.

4.6. Xizmatlarni ko'rsatish muddati o'tkazib yuborilgan yoki ko'rsatilmagan hollarda Xizmat ko'rsatuvchi Buyurtmachiga har bir o'tkazib yuborilgan kun uchun majburiyatning bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq penyalarning umumiy summasi ko'rsatilmagan xizmatlar qiymatining 50 foizidan oshiga yo'l qo'yilmaydi. Penyani to'lash shartnomalarini buzgan tomonni shartnomani tegishli tarzda bajarish va xizmatlar ko'rsatish muddatini o'tkazib yuborilishi yoki ko'rsatilmasligi natijasida yetkazilgan zararlarni qoplab berish majburiyatidan ozod qilmaydi.

5. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

5.1. Kelishmovchiliklar va bahslar kelib chiqqan taqdirda, tomonlar, qoidaga ko'ra, mustaqil ravishda ularni sudgacha hal etish choralarini ko'radilar.

5.2. Tomonlar kelishmovchilik va bahslarni hal etish uchun bevosita xo'jalik sudiga murojaat qilishga haqlidir.

5.3. Tomonlar iqtisodiy sudiga murojaat qilgan taqdirda, sud ishi da'vogar joylashgan manzildagi xo'jalik sudida ko'rib chiqiladi.

6. FORS-MAJOR

6.1. Ushbu shartnomaga asosan majburiyatlarni bajarilmasligi holatlari yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlari natijasida vujudga qelganda tomonlar o'z majburiyatlarini bajarmaslikdan qisman yoki to'liq ozod bo'ladi.

6.2. Yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlari tomonlarning irodasi va faoliyatiga bog'liq bo'limgan tabiat hodisalari (zilzila, ko'chki, bo'ron, qurg'oqchilik va boshqalar) yoki ijtimoiy-iqtisodiy holatlari (urush holati, qamal, davlat manfaatlarini ko'zlab import va eksportni taqiqlash va boshqalar) sababli yuzaga kelgan sharoitlarda tomonlarga qabul qilingan majburiyatlarni bajarish imkonini bermaydigan favqulodda, oldini olib bo'lmaydigan va kutilmagan holatlari kiradi.

6.3. Shartnomada tomonlaridan qaysi biri uchun majburiyatlarni yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlari sababli bajarmaslik ma'lum bo'lsa, darhol ikkinchi tomonga bu xaqda 10 kun ichida ushbu holatlari harakati sababini dalillar bilan taqdim etishi lozim.

6.4. Shartnomaga asosan majburiyatlarni ijro qilish muddati ushbu yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlari davom etish muddatiga qadar uzaytiriladi. Agar yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) ta'siri 60 kundan ortiqroq davom qilsa, tomonlar tashabbusiga binoan shartnomada bekor qilinishi mumkin.

7. BOSHQA SHARTLAR

7.1. Ushbu shartnomada tomonlarning ko'zda tutilmagan o'zaro munosabatlari O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan tartibga solinadi.

8. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

8.1. Mazkur shartnomaga g'aznachilik bo'linmalarida majburiy ro'yxatga olingan vaqtidan kuchga kiradi va 2022 y. "31" dekabrigacha amal qiladi.

8.2. Shartnomaning amal qilishi bir tomonning tashabbusiga ko'ra 1 (bir) oy davomida boshqa tomonga yozma ariza topshirgan kundan boshlab, barcha o'zaro hisob-kitoblar tugaganligi muddatidan avval to'xtatilishi mumkin. Tomonlar o'z zimmalariga olgan barcha majburiyatlarning bajarilishini ta'minlagan hollarda shartnomada bajarilgan hisoblanadi.

8.3. Shartnomaning amal qilish muddatini tugashi tomonlarni javobgarlikdan ozod qilmaydi.

9. YURIDIK MANZILLARI VA REKVIZITLARI

"ISH BAJARUVCHI"	"BUYURTMAchi"
<p>Tashkilot nomi : "UNIVERSAL GRAND PLYUS" MChJ</p> <p>Manzil: Fargona viloyati Buvayda tumani Telefon: +99894 424 10-01 Faks: STIR kod: 302 792 446 OKED: 46 910 X/R : 20 208 000 000 272 972 001 Bank: TIF "Milliy" bank Buvayda filiali MFO: 00525</p> <p>Raxbar (direktor): A.Axmадjonov _____ (imzo)</p> <p>M.O.</p>	<p>Tashkilot nomi: Amu-Surxon ITXB xuzuridagi nasos stantsiyalari va energetika boshkarmasi</p> <p>Manzil: Termiz shaxri Yoshlik kuchasi, 8-uy Tel/faks: 0376 221-22-74, 221-26-87 STIR kod: 200475210 OKED: 01613 Buyurtmachining G'azna shaxsiy hisobvaragi: 100021860224017042402170005 G'aznachilik nomi: Surxondaryo viloyati Faznachiligi G'aznachilik bo'linmasi INN raqami: 201122919 Yagona G'aznachilik hisobvaraqlari (YaG'Hi): 23402000300100001010, MFO: 00014, Bank: AKKM SB, Toshkent sh BB Raxbar (direktor): A. Abduuraimov _____ (imzo)</p>

Kuquqshunos vizasi: Men N.S. va E.B. nomi xuquqshunosi, ushbu shartnomaga O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi, "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomalarini huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni va boshqa qonun hujjatlari talablariga mos kelishligini aniqladim:

G. Sadarova
(F.I.Sh.)

E.yuze
(imzo)

08.02.2022 yil
(sana)